e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 10

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/wms72997

"KECHA VA KUNDUZ" ROMANIDA ERKSIZLIKNING AYOL TAQDIRIGA TA'SIRI MASALASI

Sayfullayeva Shaxrizoda Sarvar qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, magistrant.
e-mail: shaxrizodasayfullayeva3@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0004-8747-1418

Annotatsiya.
Maqolada Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida erksizlikning jamiyat hayotiga, ayniqsa, xotin-qizlar taqdiriga ko'rsatgan ta'siri masalasi tahlil etiladi. Adibning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, erkinlik va milliy ozodlik haqidagi g'oyalari asardan keltirilgan badiiy parchalar asosida yoritiladi. Shuningdek, yozuvchining jamiyat mustaqillikka erishishi uchun xalqning birligi va hamjihatligi muhim ahamiyat kasb etishi haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Cho'lpon ijodida o'z ifodasini topgan ijtimoiy muammolar, inson erki va qadr-qimmatiga doir g'oyalar adibning o'zi guvoh bo'lgan davr voqeliklari hamda xalq hayoti bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi.

Kalit so'zlar: Hamal, jadid, ma'rifatparvar, dialogiya, realist san'atkor, fojia, g'aflat.

ПРОБЛЕМА ВЛИЯНИЯ НЕСВОБОДЫ НА ЖЕНСКУЮ СУДЬБУ В РОМАНЕ «НОЧЬ И ДЕНЬ»

Сайфуллаева Шахризода Сарвар кизи
Шахрисабзский государственный педагогический институт, магистрант.

Аннотация.
В статье анализируется проблема влияния несвободы на общественную жизнь, в особенности на судьбы женщин, в романе Абдулхамида Сулеймана угли Чулпана «Ночь и день». На основе художественных фрагментов произведения раскрываются общественно-политические взгляды писателя, его идеи о свободе и национальном освобождении. Также рассматриваются взгляды автора на важность единства и сплочённости народа как необходимых условий достижения независимости общества. Социальные проблемы, идеи свободы личности и человеческого достоинства, нашедшие отражение в творчестве Чулпана, интерпретируются в тесной связи с историческими реалиями эпохи, свидетелем которой был писатель, и жизнью народа.

Ключевые слова: Хамал, джадид, просветитель, диалогия, писатель-реалист, трагедия, невежество.

THE ISSUE OF THE IMPACT OF LACK OF FREEDOM ON WOMEN'S DESTINY IN THE NOVEL "NIGHT AND DAY"

Sayfullayeva Shaxrizoda Sarvar qizi
Shahrisabz State Pedagogical Institute, Master's Student.

Abstract.
The article analyzes the impact of the lack of freedom on social life, particularly on the destinies of women, in the novel Night and Day by Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon. Drawing on literary excerpts from the novel, the study explores the writer's sociopolitical views and his ideas concerning freedom and national liberation. It also examines the author's belief that national unity and solidarity are essential for society to achieve independence. The social problems and ideas related to individual freedom and human dignity reflected in Cho'lpon's literary works are interpreted in close connection with the historical realities of the period he witnessed and the life of his people.

Keywords: Hamal, Jadid, enlightener, dialogism, realist writer, tragedy, ignorance.

Kirish. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon XX asrda, ayni yangiliklarga, dunyoviy ilmlarga talab kuchaygan, ma'rifatparvar kishilar qatlami shakllana boshlagan mahalda jadidlar safiga o'z ijod mahsullari: maqola, she'r, hikoya va romanlari bilan barq urib kirib kelgan. U o'zi tanlagan Cho'lpon taxallusiga monand iz qoldirgan ijodkordir.

"Uning birinchi asari "Hamal keldi – amal keldi" 1936-yilda "Kecha va kunduz" nomi bilan nashr etilgan. Muallif o'z asarida adolatsizlik, zulm va jaholatga to'la Turkiston hayotini badiiy aks ettiradi. Tsarizm o'zining mustamlakachilik siyosatini ochiq namoyish etdi. Uni faqat Cho'lpon asar mazmuniga kiritgan" [1].

"Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani – bu shunchaki bir oilaning yoki bir ayolning hayoti emas, balki butun o'zbek xalqining fojiasini aks ettirgan asardir. Ushbu romanda adib o'sha davrdagi jamiyatning asosiy illatlari – ilmsizlik, ayollar huquqsizligi, amaldorlarning poraxo'rligi, xalqning o'z dushmanini tanimay, jadidlarga qarshi chiqishi kabi dolzarb masalalarni ko'taradi" [2].

Masalan, asarda turli kishilarning turmush muhiti qalamga olingan. Ya'ni Zebi voyaga yetgan, eshonning gapini ikki qilolmaydigan, hatto shu yo'lda o'z qizining bolaligi va baxtini ham qurbon qilgan Razzoq so'fi hamda u bilan majburan yashagan oqila va hunarmand Fitnabibining oilasi, oddiy, ammo baxtli, faqat ro'zg'or tashvishlari bilan yashaydigan Enaxon xonadoni, o'g'il farzand ilinjida xotinlarini ko'paytiradigan Akbarali mingboshi va uning bergan "sevgisi" evaziga yashab kelayotgan Poshshaxon, Xadichaxon, Sultonxonning turmush muhiti, o'z "aravasini" o'zi tortayotgan O'lmasxon hamda dastlab mol-dunyo va hisob-kitobni qoyillatadigan, so'ngra ma'rifatparvarlar dunyoqarashiga sherik bo'lgan Miryoqub, shuningdek, boyning Sultonxoniga ko'rsatiladigan takalluf orqali qiz uzatish ishini o'nglamoqchi bo'lgan Umrinisabibining turmushi, o'zbeklarni qaram qilgach, ulardan yana ma'rifiy qo'lyozmalar va osori atiqalarni o'marmoqchi bo'lgan Noib to'raning hayoti tasvirlangan. Romanda ko'plab toifa vakillari qalamga olingan bo'lib, ularning har biri o'z vazifasi bilan bir-biriga bog'liq holda ifodalangan.

"Kecha va kunduz" asari o'zbek adabiyotidagi dilogiya namunasi bo'lib, ikki asosiy bo'lim – "Kecha" va "Kunduz"ni o'z ichiga oladi. Birinchi bo'lim – "Kecha"da qadimgi an'analar, urf-odatlar va eski tuzum tasvirlanadi. "Kecha" so'zi metaforik tarzda eskilik, qarama-qarshilik va qorong'ilikni ifodalaydi. Bu bo'limda hukmron ijtimoiy tizimning adolatsizligi, insonning o'z qiziqishlariga berilishi va yuksak qadriyatlarga erishishdagi qiyinchiliklar ochib beriladi.

Ikkinchi bo'lim – "Kunduz" esa ma'rifat, yangilanish va taraqqiyotning belgisidir. Asarda bu bo'lim orqali yangi ijtimoiy qadriyatlar, adolat, inson huquqlari va mustaqil fikrning o'sishi tasvirlanadi. Bu tuzilma orqali Cho'lpon ikki qarama-qarshi dunyo – eski va yangi, orqaga qaragan va oldinga intilgan jamiyatlar o'rtasidagi kelishmovchilik va o'zaro to'qnashuvni ko'rsatadi" [3].

Professor M. Qo'shjonov romanning boshidan oxirigacha barcha qismlari va obrazlarini bir-biriga bog'lab turadigan yagona obrazning o'rni ancha zaif [4: 8-b.], deb hisoblagan bo'lsa-da, R. Otayev va O. Sharafiddinovning qarashlarida romanning bosh qahramoni Zebi ekanligi haqidagi fikr ustuvorroq mavqega ega [5: 208-b.; 8: 64-b.].

Bizningcha ham, Zebi romanning bosh qahramoni sifatida o'zida o'zbek ayollariga xos xislatlarni jamlagan obrazdir [6]. Bu obraz XX asr o'zbek ayollarining ijtimoiy holati, jamiyatda tutgan o'rni, xotin-qizlarning ilm olishidagi to'siqlar, erta turmush qurishning fojialari va ko'pxotinlilik illatining qabohatlarini yaqqol ko'rsatib bera olgan. Aslida, asar real hayotni ifodalaganligi uchun qimmatli va mashhurdir.

"Realistik ijod tabiati shundayki, san'atkor voqelikni oddiygina tasvirlab yoki u haqida mutlaq betaraf hikoya qilib qolmaydi. Realist san'atkor o'zi tasvirlayotgan voqelikni bilish, unga o'z munosabatini bildirishni ijodning birlamchi maqsadi deb biladi" [9: 286-b.].

Rus tanqidchisi V. G. Belinskiy bu to'g'risida "Нам мало наслаждаться – мы хотим знать: без знания для нас нет наслаждения" [10: 272-b.], deya fikr bildirgan edi. Tanqidchining bu so'zlari ijodkor yozuvchiga ham, kitobxonga ham birdek taalluqlidir.

Yaxshi kitobxon romanda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar shiddatinigina emas, balki ular ifodalayotgan ma'noni, o'sha ma'no orqali anglatilmoqchi bo'lgan haqiqatni his etgandagina undan chinakam zavq ola biladi [6].

Avvalo, asarda ko'plab jabrdiyda insonlar bor. Bu, albatta, erksizlikning ayol taqdiriga salbiy ta'siridir. Muammoning yechimi hamda undan chiqish yo'li sifatida esa ma'rifat, yangi dunyoqarashga ergashish va jadidlar faoliyati ko'rsatiladi.

Jumladan, "Ibtidoiy tarbiyani rus maktablaridan boshlab bo'lmaydi, uni milliy maktablarda berish kerak. Ilgari milliy hissini o'stirib, o'z millatini tanigandan keyin rus maktabiga berish kerakki, hunarga, ixtisosga tegishli ilmlarni o'qisin" [7].

Bu fikrlar muallifidan eshitilgan suhbat esa halol yo'ldan yurmagan, farzandlari tarbiyasiga qiziqmagan, asosiy maqsadi daromad qilish bo'lgan ustamon Miryoqubning "rels"ini boshqa tomonga burib yubora oldi.

Darhaqiqat, asarning muvaffaqiyati muallif aytmoqchi bo'lgan dardlarning qahramonlar nutqida ochib berilganligidadir. "Bizning butun fojiamiz shundaki, do'stimiz bilan dushmanimizni ajrata olmaymiz" [8].

Chunki Chor Rossiyasi tomonidan kelgan rahbarlar-u ishchilarni do'st deb bilib, o'zimizning ilm-u maorifimizni rivojlantirmoqchi bo'lgan jadidlar ochgan maktablarni yopish, ularni qo'llab-quvvatlagan saxovatpeshalarga dushman sifatida qarash fojia bo'lgani aniq.

Ayniqsa, "Podsholik hamma vaqt yurtning obro'ylik odamlarini himoya qiladi" [7] degan so'zlar Chor hukumatining asl qiyofasini ochib bergan. Chunki bu siyosatda insonlarga faqat manfaat nuqtayi nazaridan munosabatda bo'lingan, oddiy aholining haq-huquqlari, ularning turmush tarzi va sharoitiga esa ahamiyat berilmagan.

Avvalo, asarda xalqning g'aflat uyqusida yotgan holati ota-onalar obrazlari orqali yorqin tasvirlab berilgan. Mamlakat xotin-qizlarini istagancha tasarruf etish, bunga qarshi keluvchilarni, kim bo'lishidan qat'i nazar, rahmsiz jazolash romanning asosiy mavzularidan biridir.

Oilada ayol kishining o'rni eng quyi darajada ekanligi, har qanday mavzu bo'lmasin, ularning fikri inobatga olinmasligi bu tuzumning qanchalar ayanchli ahvolda ekanligidan dalolat berardi. Holbuki, xotin-qizlardan tashqari, oddiy xalq ham siyosatdan norozi edi. Chunki xalqning, millatning erki, o'z taqdiri boshqalar nazorati ostida edi.

Millat fidoyilari bo'lgan jadidlar nafaqat o'sha davr yoshlarini ma'rifatli qilishga, balki butun jamiyat hayotini farovonlashtirishga, oilaviy-axloqiy munosabatlarni tartibga solishga, tobora kuchayib borayotgan nohaqliklarga qarshi jon-jahdlari bilan kurashishga intilganlar [12].

"Kecha va kunduz" asarida xalqning g'aflat uyqusida yotgan holati Razzoq so'fi, Qurbonbibi va Zebi obrazlari orqali yorqin tasvirlangan. Adabiyotshunoslar fikricha, bu o'zbek jadidlari harakati boshlangan davrdagi manzara edi. Jadidlar shunday noxush holatlar, Zebi fojiasi boshqa takrorlanmasligi uchun uning va Razzoq so'filarning ko'zini ochishni o'zlariga vazifa qilib qo'yganlar [13]. Shuningdek, ular o'sha davr qahramonlari, qutqaruvchilari sifatida maydonga chiqa

ISSN 3060-5059 (Online)

olganlar.

Zero, ma'rifatparvarlar mehnati samarasi o'laroq, bugungi kunda ayollar va qizlarning ilm egallashi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularga bo'lajak ona, millat tarbiyachisi sifatida qaralmoqda va ta'lim olishlari uchun sharoitlar yaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umurbayev R. Abdulhamid Cho'lponning «Kecha va kunduz» romani haqidagi hikoyasi // International Journal of Scientific Researchers. – 2025.
2. Nurmuhammadova F. «Kecha va kunduz» romanida obrazlar talqini // Modern Science and Research. – 2025.
3. «Kecha va kunduz» asari haqida chuqur tahlil // Ithy.
4. Qo'shjonov M. «Kecha va kunduz» romanida obrazlar tizmasi // O'zbek tili va adabiyoti. – 1992. – B. 128.
5. Otayev R. Tong yulduzi shu'lalari // Sharq yulduzi. – 1989. – B. 208.
6. Sayitkulova Z. A. Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida oilaviy munosabatlarning aks ettirilishi // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2021.
7. Cho'lpon A. Kecha va kunduz. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.
8. Sharafiddinov O. Cho'lpon. – Toshkent: Fan va turmush, 1991. – 415 b.
9. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq, 2004. – 288 b.
10. Белинский В. Г. Полное собрание сочинений. – Москва, 1955. – Т. 6. – С. 661–672.
11. Shaxobiddinova A. «Kecha» orzu qilgan yorqin yulduzlar // Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar. – 2025.
12. Eshbek T. «Kecha» orzu qilgan yorqin yulduzlar. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.